



## SYSTEM OF GOVERNANCE OF SHAHRISABZ BEKLIK: 19TH CENTURY

**Khabiba Mukhammadievna Kamalova**

Associate Professor, University of Economics and Pedagogy

[kamolova\\_bkru.70@gmail.com](mailto:kamolova_bkru.70@gmail.com)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** beklik, amlok, amlokдор, amin, sarkor, kotib, qozi, rais, mirob, oqsoqol, zakotchi, darg'aboshi."

**Received:** 02.12.25

**Accepted:** 03.12.25

**Published:** 04.12.25

**Abstract:** This article discusses the administrative system of the Shahrissabz beklik, which was considered one of the important socio-political, economic, and cultural centers of the Bukhara Emirate in the second half of the 19th century.

## SHAHRISABZ BEKLIIGINING BOSHQARUV TIZIMI: XIX ASR

**Xabiba Muxammadiyevna Kamalova**

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

[kamolova\\_bkru.70@gmail.com](mailto:kamolova_bkru.70@gmail.com)

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** beklik, amlok, amlokдор, amin, sarkor, kotib, qozi, rais, mirob, oqsoqol, zakotchi, darg'aboshi.

**Annatsiya:** Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining muhim siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan Shahrissabz bekligining boshqaruv tizimi to'g'risida fikr bildiriladi.

## СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ БЕКСТВА ШАХРИСАБЗ: XIX ВЕК

**Хабиба Мухаммадиевна Камалова**

Доцент, Университет экономики и педагогики.

[kamolova\\_bkru.70@gmail.com](mailto:kamolova_bkru.70@gmail.com)

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** беклик, амлок, амлокдор, амин, саркор, котиб, кози, раис, мираб, аксакал, закятчи, даргабаши.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается система управления Шахрисабзского бекства, считавшегося одним из важных политических, социальных, экономических и культурных центров Бухарского эмирата во второй половине XIX века.

**Kirish.** XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi O'rta Osiyo xonliklari orasida o'zining hududi, aholisi va moddiy-iqtisodiy manbalari, tabiiy boyliklariga ko'ra bir muncha qudratliroq davlat edi. Bu davrda Buxoro amirligining hududi 200 ming km<sup>2</sup> bo'lib, aholisi 2 mln kishini tashkil etgan. Shundan 300-500 mingi Zarafshon, 500 mingi Qashqadaryo, 200 mingi Surxondaryo, 500 mingi Sharqiy Buxoroda yashagan, qolganlari ko'chmanchi turkman va qoraqalpoqlar bo'lib, cho'l mintaqasida chorvachilik bilan kun kechirgan[1].

Buxoro amirligi o'z boshqaruvi va ma'muriy bo'linishi bilan ajralib turgan. Buxoro amirligida amir oliy hukmdor hisoblanib, ijro etuvchi hokimiyat qo'shbegi qo'lida bo'lgan. Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan bekliliklarga bo'lingan. Bekliklar o'z navbatida amlokliklarga bo'lingan bo'lib, ular bir nechta qishloqlarni o'z ichiga olar edi. Buxoro amirligida ma'muriy jihatdan bir qadar ilgari tashlangan bu qadam amirlikning avval deyarli mustaqil bo'lgan bekliliklarini hududiy va ma'muriy jihatdan birmuncha tartibga keltirgan. Amirlikda 27 beklilik mavjud bo'lib, deyarli barcha beklar amir tomonidan tayinlangan.

Qashqadaryo vohasida Qarshi, Shahrisabz, Chiroqchi, Kitob, G'uzor, Yakkabog' bekliliklari mavjud bo'lgan. Aholi soni jihatidan Qarshi (16 amloklikka) va Shahrisabz (14 amloklikka) bekliliklari amirlikda oldingi o'rinlarni egallagan[2].

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotning obyektini Shahrisabz bekligining XIX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi tarixi belgilab olingan. Mavzuni yoritishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, obyektivlik, tizimli tahlil, qiyoslash, statistik tahlil, sotsiologik, muammoli-xronologik yondashuv kabi uslublardan foydalanilgan.

**Natija va muhokama.** Shahrisabz bekligi Buxoro amirligining muhim siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan. Beklik o'zining joylashgan o'ri, boshqaruv tartibi, aholisi, tabiati, boyliklari bilan ham salmoqli ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun Buxoro amirligi ushbu beklikdagi ma'muriy boshqaruvni, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotni yanada mustahkamlash va takomillashtirishga katta ahamiyat bergan edi.

Shahrisabz bekligini Buxoro amiri tomonidan tayinlangan beklar boshqargan. Shahrisabz bekligi markaziy hokimiyatga taqlid qilib, xuddi amir saroyidagidek o'z mansab va mansabdorlarini saqlagan. XIX asrning 70-yillarida Buxoroda bo'lgan rus sayyohi doktor Yavorskiy shunday yozadi: "Buxoroda har bir bek o'zini hududning yakka egasi deb hisoblaydi.

Har bir bek o'zining bir oz kichikroq va kamroq bo'lsa-da mansab va vazifalar mavjud saroyiga ega"[3].

Beklikni boshqarish bekning shaxsiy nazorati ostida oqsoqollar, sarkorlar, qozilar, raislar miroblar va mirshablar zimmasiga yuklatilgan. Har bir qishloq mirshabi, shuningdek, o'z oqsoqoliga ega bo'lgan. Bir necha qishloqqa boj yig'uvchi zakotchisi hisoblangan sarkor tayinlangan. Jo'rabek davrida Kitobda 6 ta sarkor ish olib borgan. Shahrisabzda esa 9 ta sarkor faoliyat ko'rsatgan. Har bir sarkorga ariqlar nazoratchisi bo'lgan 10 ta mirob bo'ysungan[4].

Shaharda sud hokimiyati qozilar qo'lida bo'lib, u amir tomonidan tayinlangan. Qozi nafaqat sud ishlarini boshqargan, balki mahalliy hokim faoliyatini nazorat qilib ham turgan. Shu tariqa mahalliy hokimiyat ikki tomonlama nazoratni yo'lga qo'ygan. Shahrisabz 5 ta qozisiga ega bo'lib, ular shuningdek, muftiy ham hisoblangan. Qozilar asosan sarkorlar yashaydigan qishloqlarda istiqomat qilishgan. Shahrisabzning bitta qozikaloni, raisi, mirshabboshisi bo'lgan. Yuqorida sanab o'tilgan mansabdorlar sarkordan tashqari jamoat hisobidan maosh olishgan[5].

Beklikning ushbu boshqaruv tizimida amloklik o'rni katta bo'lgan. Amlokdor Buxoro amirligida beklarga qarashli eng kichik ma'muriy bo'linma (amloklik)ni boshqaruvchi amaldor bo'lib, u aholining o'ziga to'q vakillaridan tayinlanib, bir necha katta va kichik qishloqlar uning ixtiyorida bo'lgan. Amlokdor xiroj yig'ish, dehqonlar yetishtirgan hosilni hisobga olish, soliq to'lamaganlarni jazolash, jarima solish va boshqa xo'jalik ishlari bilan shug'ullanib, kotib(mirzo), mirob, amin, oqsoqollar yordamida amloklikni idora qilgan[6].

Bu davrda Shahrisabz bekligi 13 ta amloklikka bo'lingan edi. O'zMA'dagi Buxoro amiri qo'shbegisi fondidagi ma'lumotlariga ko'ra, 1916-yili Shahrisabz bekligida Shavkent, Zangi, Musoobod, Chahorbog'/Chorbog', Dehyaki nav, Dehyaki ko'hna, Toshko'prik, Hisorak, G'elon, Qizil emchak, Chungurak, Dehtur va O'rta qo'rg'on kabi amlokliklar mavjud bo'lgan[7].

Amin amlokdorga itoat etib, soliq yig'ish va aholini nazorat ostida saqlab turishda unga yordam bergan. Bu vazifaga mahalliy mayda mansabdorlar tayinlangan. Amin amloklik hududidagi yo'llar, dovonlar, daryo kechuvlari, qolaversa, aholining turmush sharoitini boshqa mansabdorlarga nisbatan yaxshi bilgan.

Oqsoqol har bir qishloqda katta e'tiborga ega kishi hisoblanib, ular saylov yo'li bilan shu lavozimga o'tirgan. Oqsoqollar qishloqni ma'muriy, xo'jalik va ijtimoiy boshqarishda amlokdorga yordam berganlar. Ularning asosiy vazifasi aholining kundalik ichki ishlarini hal etish, marosim va urf-odatlar bajarilishini nazorat qilish hamda qishloq aholisi o'rtasidagi har xil nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo'lgan.

Har bir amloklikda mirob, zakotchi va darg'aboshi bo'lgan. Amlokliklardagi muhim lavozimlardan biri mirob edi. Mirob suv taqsimoti va sug'orish tizimi ustidan nazorat qilgan. Bosh sug'orish tizimi hisoblangan magistral kanallardan katta ariqlarga suv taqsimlash mirobboshiga,

katta ariqlardan qishloq ariqlariga suv taqsimlash esa ariq oqsoqollariga, qishloq ariqlaridan shohariqlarga va dahanalarga suv taqsimlash qishloq mirobiga yuklatilgan. Miroblar kuzda dehqonlardan mirobona solig'ini olganlar. Zakotchi va darg'aboshi soliqlarning to'lanishi to'g'risida ma'lumot yig'ishgan. Har bir beklikda ikkita zakotchi mavjud edi, biri bek yonida bo'lib, uning qo'rg'onida yashagan, ikkinchisi esa beklikka bo'ysunuvchi hududlarga borib mulkdor shaxslarga zakot miqdorini belgilagan. Chor hukumati amaldorlari va sayohatchilari ma'lumotlariga qaraganda, XIX asr oxirlarida har bir beklikda amaldorlar soni 200-300 kishiga yetgan.[8] Bekliklardagi amaldorlarga ish haqi ajratilmagan, aholidan ular foydasiga soliq olingan. Har bir bekning kotibi yoki devonbegisi bo'lib, u asosan soliqlarning o'z vaqtida yig'ib olinishini nazorat qilgan.

Yuqorida ta'kidlangan boshqaruv tizimi bo'linmalari va ularning boshqaruvchilari Shahrisabz bekligi hayotida muayyan o'rin tutsada, lekin hal qiluvchi ahamiyatga ega emas edi. Bu borada Buxoro amirligi tomonidan tayinlanadigan va bo'shatiladigan Shahrisabz begi lavozimi eng yuqori darajali ahamiyatga ega bo'lgan. Shuning uchun Shahrisabzda beklik lavozimini egallashda urug'lar va qabilalar vakillari o'rtasida tinimsiz kurashlar bo'lib turgan.

Shahrisabzdagi kuchlar bu davrda amalda o'z mustaqilligini saqlab kelib, bundan tashqari Buxoro hokimiyatiga doimo xavf tug'dirib kelganlar. XIX asr o'rtalarida Shahrisabz bekligi beklar orasida o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kurash olib borib, aslida Buxorodagi markaziy hokimiyatga ham bo'ysunmaslik yo'lini tutib, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor beklilari esa Shahrisabz ta'siri ostida bo'lib kelmoqda edi[9]. Manbalarda qayd etilishicha, Bobobek (1833-1898) Shahrisabz hokimi (1865-1870) kenagas urug'ining ochamayli aymog'idan bo'lib, otasi Hakimbiy vafotidan so'ng (1865) Shahrisabz beki etib saylangan.

Keyingi yillarda (1850-1870-yillar) beklik ikkita bek: Jo'rabek va Bobobek tomonidan boshqarilgan. Voha unga kiruvchi daralar bilan birga ikkita bek o'rtasida deyarli teng bo'lingan. Jo'rabek o'ziga tegishli yerlar bilan Kitobni, Bobobek esa Shahrisabzni boshqargan[10]. Beklik Bobobekdan so'ng, 1920-yilgacha Haydarxon, Mirza Salimbek va Said Karimxonlar tomonidan boshqarilgan.

**Xulosa.** Shahrisabz bekligi o'zining nufuzi jihatidan XIX asrda Buxoro amirligida uchinchi o'rinda turgan. Bu davrda Shahrisabz bekligida murakkab siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar yuz berayotgan edi. Beklikning siyosiy hayotida Buxoro amirligiga bo'ysunmaslik, mustaqillik uchun va rus bosqinchilarining asoratiga tushmaslik yo'lida kurashlar muhim o'rin tutgan. Bu kurash boshida Kitob va Shahrisabz beklari bo'lgan Jo'rabek va Bobobeklarning o'rni va roli katta edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Buxoro amirligi" O'zME. B-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

2. Сафаров Д.Т. XIX аср охири XX аср бошларида Қуйи Қашқадарё аҳолиси (тарихий-этнографик маълумотлар)// Қадимий Қарши. Ўрта Осиё шаҳарсозлиги ва маданияти тарихи. – Қарши: Насаф, 1999. – Б.152.
3. Яворский И.Л. Путешествие русского посольства по Афганистану и Бухарскому ханству в 1876-1879 гг.Т.1.-СПб., 1882. – С.35-36.
4. Григорев В.В. Очерки Шахрисабзского бекства // Вестник Европы. 1870. Отд. отт – С.22.
5. Тухтаметов Т.Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX-начале XX в. – Тошкент: Фан, 1966. – С. 28.
6. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Том 1. – Б.286.
7. О'з МА, I-128-fond, 1-ro'yxat, 71-ish, 24a-varaq. Ushbu ishda amlokliklarga qarashli 170 dan ortiq qishloqlar nomi keltirilgan.
8. Чориев З. Тарих атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Т: Шарқ, 2002. – Б.150.
9. Бейсембиев Т.К. Малие владения в Мавераннахре: Нур-ата, Ургут, Яккабаг (XVIII- XIX вв.) // Iran-name, 2007. – № 2. – С.
10. Кун А. Очерки Шахрисабзского бекства // Записки Императорского Русского Географического Общества по отделению этнографии, том 6. – СПб., 1880. –С. 217-218.